O‘ZBEK VA INGLIZ KOLLOKATSIYALARIDA SEMANTIK PROSODIYANING QIYOSIY IFODALANISHI

Xamdamov Xaydar Azamatovich
Axborot texnologiyalari va menejment
hamdamovhaydar@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz kollokatsiyalarining semantik prosodiyasi qiyosiy-semantik hamda korpusga tayangan kontekstual tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqot materiali eksperimental kollokatsiyalar reyestridan maqsadli ravishda tanlangan 24 ta o‘zbekcha-inglizcha juftlik va ularning badiiy, publitsistik hamda rasmiy matnlardagi kontekstlaridan iborat. Tahlilda leksik birlikning o‘zida ochiq ifodalangan baho bilan uning muntazam qurshovida shakllanadigan semantik prosodiya bir-biridan farqlandi. Har bir juftlik baho yo‘nalishi, intensivlik, registr va tarjimada bahoning qaysi komponent orqali qayta yaratilishi mezonlari bo‘yicha kodlangan. Natijada prosodik moslik, bahoning leksik qayta taqsimlanishi, intensivlik siljishi va registrga bog‘liq moslikdan iborat to‘rt tur ajratildi. Tanlangan 24 juftlikning 8 tasida baho yo‘nalishi va kuchi yaqin saqlangan, 7 tasida baholovchi yuk boshqa komponentga ko‘chgan, 5 tasida intensivlik o‘zgargan, 4 tasida esa muqobil tanlovi institutsional registr bilan belgilangan. Semantik prosodiyani tarjima ekvivalentligining qo‘shimcha belgisi emas, kollokatsion muqobilni tanlashning mustaqil mezoni sifatida baholash taklif qilindi.*

Kalit so‘zlar: *kollokatsiya, xususiy birikuvchanlik, semantik prosodiya, baholash, intensivlik, qiyosiy tahlil, tarjima muqobilligi, registr.*

Abstract. *The article examines the semantic prosody of Uzbek and English collocations through contrastive-semantic and corpus-informed contextual analysis. The material consists of 24 Uzbek-English pairs purposefully selected from the author’s experimental collocation register and examined in literary, journalistic and official contexts. The study distinguishes overt lexical evaluation from semantic prosody that emerges across a recurrent lexical environment. Each pair was coded for evaluative direction, intensity, register and the component through which evaluation is reconstructed in translation. Four relations were identified: prosodic alignment, lexical redistribution of evaluation, intensity shift and register-conditioned correspondence. Of the 24 pairs, eight preserved a comparable direction and strength*

of evaluation, seven redistributed the evaluative load to another component, five displayed an intensity shift, and four required a register-specific institutional equivalent. The findings show that denotational accuracy alone does not secure a natural collocational equivalent. Semantic prosody should therefore be treated as an independent criterion in translation and bilingual lexicographic description. The study is deliberately limited to a qualitative purposive sample; its numerical distribution is not presented as a frequency profile of either language.

Keywords: *collocation, restricted co-occurrence, semantic prosody, evaluation, intensity, contrastive analysis, translation equivalence, register.*

Аннотация. *В статье исследуется семантическая просодия узбекских и английских коллокаций на основе сопоставительно-семантического и корпусно-ориентированного контекстуального анализа. Материал составили 24 узбекско-английские пары, целенаправленно отобранные из экспериментального реестра коллокаций автора и рассмотренные в художественных, публицистических и официальных контекстах. В анализе разграничиваются открытая лексическая оценка и семантическая просодия, формирующаяся в регулярном окружении единицы. Каждая пара кодировалась по направленности оценки, интенсивности, регистру и способу воспроизведения оценочного значения в переводе. Выделены четыре типа отношений. Просодическое соответствие, лексическое перераспределение оценки, сдвиг интенсивности и регистрово обусловленное соответствие. В восьми из 24 пар направление и сила оценки были близко сохранены, в семи оценочная нагрузка перешла к другому компоненту, в пяти наблюдался сдвиг интенсивности, а в четырёх выбор эквивалента определялся институциональным регистром. Семантическую просодию предлагается считать самостоятельным критерием выбора переводного и лексикографического эквивалента.*

Ключевые слова: *коллокация, ограниченная сочетаемость, семантическая просодия, оценка, интенсивность, сопоставительный анализ, переводная эквивалентность, регистр.*

KIRISH

So‘zning lug‘aviy ma’nosini bilish uni nutqda tabiiy qo‘llash uchun har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Bir leksema grammatik jihatdan bir necha birlik bilan birika olsa-da, til jamoasi muayyan ma’noni ifodalashda ulardan ayrimlarini afzal tanlaydi. Ana shu tanlovda nafaqat denotativ mazmun, balki baho, munosabat va uslubiy ohang ham shakllanadi. Ingliz tilidagi *cause* fe’li grammatik imkoniyatiga ko‘ra turli oqibat

nomlari bilan kelishi mumkin, biroq uning *damage, concern, confusion, delay* singari salbiy natijalarni bildiruvchi birliklar bilan muntazam qo‘llanishi fe’l atrofida noxush vaziyatlar maydonini hosil qiladi. O‘zbek tilidagi *sabab bo‘lmoq* esa ijobiy va salbiy natijalarga nisbatan kengroq ishlatiladi. Shuning uchun *cause happiness* shakli grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, ingliz tilining odatiy tanlovida *bring happiness, lead to improvement* yoki *contribute to success* kabi boshqa vositalar faolroq bo‘lishi mumkin. Tarjima muammosi aynan mana shu ko‘rinmas tanlov qatlamida yuzaga keladi.

Korpus tilshunosligida bunday muntazam baholovchi qurshov “semantik prosodiya” nomi bilan o‘rganiladi. J. Sinkler birlik ma’nosini uning kengaygan leksik-grammatik muhiti bilan bog‘lagan bo‘lsa [2], B. Lou ushbu muhitdagi takroriy baholashning matnni talqin qilishdagi diagnostik imkoniyatini ko‘rsatgan [3]. Keyingi tadqiqotlarda M. Stabs, A. Partington va S. Hanston tushunchaning ko‘lami, semantik afzallik bilan munosabati va diskurs vazifasi haqida turli nuqtayi nazarlarni ilgari surdilar [4-6]. Muhim jihat shundaki, semantik prosodiya alohida so‘zning lug‘atdagi ijobiy yoki salbiy belgisi bilan teng emas. U birlikning qayta-qayta uchraydigan qurshovi, muallif pozitsiyasi va kommunikativ vazifasi tutashgan joyda ko‘rinadi.

Masalan, *threat* o‘zi salbiy mazmunga ega. *Pose a threat* birikmasida salbiylik faqat *pose* fe’lining xususiyati emas. U butun konstruktsiya va uning odatiy obyektlari bo’lmish *public health, security, stability, environment* kabi xavf qaratilgan sohalar orqali mustahkamlanadi. Aksincha, *tackle* yoki *alleviate* fe’llari ko‘pincha salbiy vaziyat nomlari bilan keladi, lekin ularni avtomatik ravishda salbiy prosodiyali birlik deb belgilash xato bo‘ladi. Bu fe’llar muammoni kamaytirish yoki bartaraf etishga qaratilgan ijobiy harakatni bildiradi. Demak, tugun birlik, kollokat va gapning kommunikativ yo‘nalishi birgalikda tekshirilmasa, bahoning manbai noto‘g‘ri aniqlanishi mumkin.

Semantik prosodiyaning tillararo qiyosi yanada murakkab. R. Xiao va T. MakEneri ingliz va xitoy tillari materialida yaqin denotativ ma’noga ega birliklarning kollokatsion xulqi va prosodiyasi teng bo‘lmasligini ko‘rsatgan [7]. Bu xulosa o‘zbek-ingliz qiyosi uchun ham muhim. Ikki tilda bir xil voqea nomlansa-da, baho sifat, fe’l, ravish, kelishik shakli yoki butun predikativ konstruktsiyaga turlicha taqsimlanadi. *High hopes* o‘zbekchada *baland umid* emas, *katta umid* deb, *compelling evidence* esa *majbur qiluvchi dalil emas, ishonarli* yoki *asosli dalil* shaklida tabiiylashadi. Tarjimada so‘zlar almashtiriladi, lekin bahoning yo‘nalishi va kuchi qayta tiklanishi kerak.

O‘zbek tilshunosligida xususiy birikuvchanlik masalasi leksemaning tanlangan qurshovi, valentligi va nutqiy voqelanishi nuqtayi nazaridan yoritilgan [17-19]. Biroq

o‘zbek va ingliz kollokatsiyalarini aynan semantik prosodiya, intensivlik va registrning o‘zaro ta’siri asosida qiyoslaydigan ishlar yetarli emas. Ko‘p hollarda baholovchi sifatning tarjimasi yoki birikmaning umumiy ma’nosi ko‘rsatiladi, ammo baho qaysi komponentdan kelayotgani, maqsad tilda qayerga ko‘chgani va qanday diskursda tabiiylashgani alohida izohlanmaydi.

Maqolaning maqsadi o‘zbek va ingliz kollokatsiyalarida semantik prosodiyaning ifodalanish usullarini qiyoslash hamda tarjimada baholovchi-pragmatik qiymatning saqlanish, qayta taqsimlanish va siljish holatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun uch savol qo‘yildi. Birinchidan, leksik baho bilan semantik prosodiyani qanday mezon asosida farqlash mumkinligi, ikkinchidan, o‘zbekcha va inglizcha muqobillarda baholovchi yuk qaysi komponentlar orqali berilishi, uchinchidan esa intensivlik va registrdagi farq tarjima ekvivalentligiga qanday ta’sir qilishi kabi savollar qo’yildi.

METODLAR

Tadqiqot materiali o‘zbekcha-inglizcha va inglizcha-o‘zbekcha eksperimental kollokatsiyalar reyestridan maqsadli ravishda ajratilgan 24 juftlikdan iborat. Tanlashda uch shart qo‘yildi. Birlikda baholash yoki bahoga moyil kontekst mavjud bo‘lishi, muqobil ikki tilda uzual shakl bilan ifodalanishi, birikma badiiy, publitsistik yoxud rasmiy-institutsional diskursda tekshirilishi mumkin bo‘lishi kerak. Tanlangan birliklar statistik vakillik da’vosini qilmaydi. Uning vazifasi semantik prosodiyani qiyoslashda ishlaydigan tahlil mezonlarini sinash va tarjima munosabatlarining asosiy turlarini ko‘rsatishdir.

Materialni kontekstlashtirishda ingliz tilidagi Project Gutenberg ochiq badiiy matnlari, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va “Dunyo” axborot agentligi materiallari, shuningdek, rasmiy-huquqiy hamda publitsistik matnlarda me’yorlashgan konstruktsiyalar hisobga olindi [20-23]. Kollokatsion maqom va grammatik model Oxford Collocations Dictionary, korpus lingvistikasi tadqiqotlari hamda xususiy birikuvchanlikka oid o‘zbek manbalari bilan qiyoslandi [12-13; 17-19; 24]. Korpus manbasi bu yerda tayyor hukm emas, kontekstlarni ko‘rsatadigan dalil qatlamidir. Yakuniy tasnif sintaktik aloqa va kommunikativ vazifa qo‘lda ko‘rilgandan keyin berildi.

Tahlil birligi ikki so‘zli juftlik bilan cheklanmaydi. Tugun birlik va bevosita kollokatga zarur grammatik boshqaruv hamda mahalliy kontekst qo‘shildi. Masalan, *pose a serious threat to public health* misolida *pose + threat* kollokatsion yadro, *serious intensiv*-baholovchi aniqlovchi, *to public health* esa xavf yo‘naltirilgan obyektni bildiruvchi sintaktik o‘rindir. Xuddi shunday, chuqur hamdardlik bildirmoq

konstruktsiyasida chuqur + hamdardlik va hamdardlik + bildirmoq aloqalari ustma-ust keladi. “Semantik prosodiya” butun kengaygan birlik bo‘yicha baholandi.

Kodlash to‘rt bosqichda bajarildi. Birinchi bosqichda kollokatsiyaning denotativ yadrosi va baholovchi komponenti ajratildi. Ikkinchi bosqichda mahalliy kontekst ijobiy, salbiy, neytral yoki aralash yo‘nalishda belgilandi. Uchinchi bosqichda bahoning kuchi kuchaytirilgan, me’yoriy yoki yumshatilgan tarzida qayd etildi. To‘rtinchi bosqichda maqsad tildagi muqobil bahoni ayni komponentda saqlaydimi, boshqa komponentga ko‘chiradimi yoki registr orqali qayta talqin qiladimi, degan savol tekshirildi. Baholashning faqat “yaxshi-yomon” qarama-qarshiligi bilan cheklanmasligi uchun institutsional qat’iylik va ehtiyotkor-rasmiy munosabat alohida izohlandi.

Tasnifning ishonchliligini oshirish maqsadida semantik moyillik va semantik prosodiya o‘zaro aralashtirilmay, alohida mezonlar sifatida tahlil qilindi.. Semantik afzallik kollokatlarning ma’lum bir ma’no sinfiga, masalan, sabab, oqibat, xavf yoki his-tuyg‘u sohasiga mansubligini bildiradi. Semantik prosodiya esa shu sinf orqali yuzaga keladigan baholovchi va pragmatik yo‘nalishdir [5-8]. So‘nggi metodik tadqiqotlar prosodiyani qo‘lda belgilashda tadqiqotchilararo muvofiqlik masalasi muhimligini ko‘rsatadi [14]. Shu sabab ushbu maqolada bahsli holatlar qat’iy ijobiy yoki salbiy deb majburan belgilanmadi. Ular registrga bog‘liq yoki aralash holat sifatida tavsiflandi.

1-jadval. Semantik prosodiyani kodlash mezonlari

Mezon	**Asosiy savol**	**Kodlash natijasi**
Baho manbai	*Baho tugun birlikdami, kollokatdami yoki keng kontekstdami?*	ochiq leksik / qurshoviy / aralash
Yo‘nalish	*Kontekst qanday munosabatni barqarorlashtiradi?*	ijobiy / salbiy / neytral / aralash
Intensivlik	*Baho kuchaytirilganmi yoki yumshatilganmi?*	kuchli / me’yoriy / yumshoq
Registr	*Birlik qaysi diskursda uzual?*	badiiy / publitsistik / rasmiy
Tarjima munosabati	*Baho maqsad tilda qayerda va qanday qayta yaratilgan?*	mos / qayta taqsimlangan / siljigan / registrga bog‘liq

NATIJALAR

Tahlil natijasida semantik prosodiyaning tillararo voqelanishi to‘rt munosabatga ajratildi. Birinchi munosabat prosodik moslik bo’lib, bunda denotativ mazmun bilan birga bahoning yo‘nalishi va nisbiy kuchi ham yaqin saqlanadi. *Deep respect - chuqur*

hurmat, grave concern - jiddiy tashvish, cause damage - zarar yetkazmoq kabi juftliklarda komponentlar lug‘aviy jihatdan aynan teng bo‘lmasa ham, butun konstruktsiyaning kommunikativ ta’siri mos keladi. Tanlangan birliklardan 8 ta juftlik shu guruhga kirdi.

Ikkinchi munosabat bahoning leksik qayta taqsimlanishi bo’lib, bunda manbaa tilidagi baholovchi belgi maqsad tilda boshqa obraz yoki boshqa komponent orqali ifodalanadi. *High hopes* birikmasidagi vertikal balandlik o‘zbekchada hajm sxemasi bilan *katta umid* tarzida beriladi. *Compelling evidence* tarkibidagi *compelling* “ishontirishga majbur qiluvchi” kuchni faollashtirsa, o‘zbekcha *ishonarli dalil* natijani ya’ni dalilning ishonch tug‘dirishini oldingi o‘ringa chiqaradi. *Make a significant contribution* juftligida *significant* miqyosni bildiradi. *Munosib hissa qo‘shmoq* esa hissani ijtimoiy-aksiologik mezon bilan baholaydi. Denotat yaqin, lekin bahoning konseptual manbai o‘zgargan. Bu turga 7 juftlik kiritildi.

Uchinchi munosabat intensivlik siljishi bo’lib, bunday holatda ijobiy yoki salbiy yo‘nalish saqlanadi, ammo uning darajasi yoki obrazli bosimi o‘zgaradi. *Profound silence* badiiy kontekstda oddiy jimlikdan kuchliroq ruhiy taranglikni anglatadi. Uni *chuqur sukut* deb berish makon obrazini saqlaydi. *Og‘ir sukunat* variantida esa psixologik bosim kuchayadi. *Hamma jimib qoldi* shakli voqeani yetkazadi, lekin prosodik bosimni yumshatadi. *Torrential rain - jala* va *bitter cold - qattiq sovuq* juftliklarida inglizcha sifat yordamida kuchaytirish o‘zbekchada ot tanlovi yoki boshqa sifat orqali qayta quriladi. Tanlamada 5 juftlikda shunday siljish qayd etildi.

To‘rtinchi munosabat registrga bog‘liq prosodik moslik bo’lib, *commit a crime, adopt a resolution, conduct an investigation va impose restrictions* birliklarida salbiylik yoki qat’iylik alohida fe’lning lug‘aviy bahosidan ko‘ra institutsional voqea bilan bog‘liq. O‘zbekcha *jinoyat sodir etmoq, qaror qabul qilmoq, tergov olib bormoq* va *cheklovlar joriy etmoq* shakllari rasmiy me’yorni tiklaydi. Masalan, *impose* fe’lini *yuklamoq* deb so‘zma-so‘z ko‘chirish ayrim gaplarda anglashilishi mumkin, lekin rasmiy-huquqiy registrda *joriy etmoq* konstruktsiyasi harakatning institutsional maqomini aniqroq beradi. Ushbu guruh 4 juftlikdan iborat bo’ldi.

2-jadval. Tanlamadagi prosodik munosabatlarning taqsimoti

Munosabat turi	Soni	Ulushi	Tipik misol
Prosodik moslik	*8*	33,3%	grave concern - jiddiy tashvish
Bahoning qayta taqsimlanishi	*7*	29,2%	high hopes - katta umid
Intensivlik siljishi	*5*	20,8%	profound silence - og‘ir sukunat

Munosabat turi	Soni	Ulushi	Tipik misol
Registrga bog‘liq moslik	*4*	16,7%	impose restrictions - cheklovlar joriy etmoq
Jami	*4*	100%	Maqsadli sifat tanlamasi

Jadvaldagi foizlar faqat mazkur 24 birlikdan iborat maqsadli tanlama ichidagi nisbatni bildiradi. Ular o‘zbek yoki ingliz tilidagi barcha kollokatsiyalarning statistik taqsimoti sifatida talqin qilinmaydi. Bu chegarani aniq ko‘rsatish muhim, chunki sifat tahlilida misollar soni bilan til tizimi haqida umumiy chastotaviy hukm chiqarish bir xil ilmiy amal emas.

3-jadval. Tahlil qilingan kollokatsion juftliklar

№	Inglizcha birlik	O‘zbekcha muqobil	Prosodik yo‘nalish	Munosabat
1	*deep respect*	chuqur hurmat	ijobiy	moslik
2	*heartfelt congratulations*	samimiy tabriklar	ijobiy	moslik
3	*warm welcome*	samimiy kutib olish	ijobiy	moslik
4	*strong support*	kuchli qo‘llab-quvvatlash	ijobiy	moslik
5	*grave concern*	jiddiy tashvish	salbiy	moslik
6	*pose a serious threat*	jiddiy xavf tug‘dirmoq	salbiy	moslik
7	*cause damage*	zarar yetkazmoq	salbiy	moslik
8	*bitterly disappointed*	qattiq ranjigan	salbiy	moslik
9	*high hopes*	katta umid	ijobiy	qayta taqsimlash

№	Inglizcha birlik	O‘zbekcha muqobil	Prosodik yo‘nalish	Munosabat
10	*compelling evidence*	ishonarli dalil	ijobiy-epistemik	qayta taqsimlash
11	*make a significant contribution*	munosib/salmoqli hissa qo‘shmoq	ijobiy	qayta taqsimlash
12	*heavy losses*	katta talafot / og‘ir yo‘qotish	salbiy	qayta taqsimlash
13	*flimsy excuse*	asossiz bahona	salbiy	qayta taqsimlash
14	*foster mutual trust*	o‘zaro ishonchni mustahkamlash	ijobiy	qayta taqsimlash
15	*trigger concern*	tashvish uyg‘otmoq	salbiy	qayta taqsimlash
16	*mounting concern*	tobora ortib borayotgan tashvish	salbiy	intensivlik siljishi
17	*profound silence*	chuqur sukut / og‘ir sukunat	salbiy-aralash	intensivlik siljishi
18	*utter disbelief*	mutlaqo ishonmaslik / qattiq hayrat	salbiy-aralash	intensivlik siljishi
19	*torrential rain*	jala / kuchli yomg‘ir	salbiy vaziyat	intensivlik siljishi
20	*bitter cold*	qattiq sovuq	salbiy vaziyat	intensivlik siljishi
21	*commit a crime*	jinoyat sodir etmoq	salbiy institutsional	registr
22	*adopt a resolution*	qaror/rezolyutsiya qabul qilmoq	neytral rasmiy	registr
23	*conduct an investigation*	tergov/tekshiruv olib bormoq	neytral rasmiy	registr

№	Inglizcha birlik	O‘zbekcha muqobil	Prosodik yo‘nalish	Munosabat
24	*impose restrictions*	cheklovlar joriy etmoq	cheklovchi rasmiy	registr

Badiiy matn natijalari prosodiyaning ko‘pincha ikki qatlamda ishlashini ko‘rsatdi. *Profound silence* birikmasida *profound* sukut darajasini kuchaytiradi, *silence fell* modeli esa jimlikni makonga tushadigan holat sifatida jonlantiradi [22]. O‘zbekchada *chuqur sukut cho‘kdi* shakli ikki obrazni ham nisbatan saqlaydi. *Og‘ir sukunat tushdi* variantida esa chuqurlik vazn bilan almashadi. Ikkinchi variant denotativ jihatdan uzoqlashmagan bo‘lsa-da, qahramonlar orasidagi ruhiy bosimni kuchliroq sezdiradi. Demak, badiiy tarjimada “eng yaqin lug‘aviy so‘z” bilan “eng yaqin prosodik ta’sir” bir variantga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Deep sleep konstruktsiyasi ham makon chuqurligini holat intensivligiga ko‘chiradi [23]. O‘zbekcha chuqur uyqu birikmasi obraz va daraja bo‘yicha yaqin. Biroq *deep concern* va *deep trouble* birliklarini *chuqur tashvish, chuqur muammo* shaklida avtomatik ko‘chirish mumkin emas. Birinchisida *chuqur tashvish* ayrim kontekstlarda tabiiy bo‘lsa, ikkinchisida *jiddiy muammo* yoki *og‘ir ahvol* me’yoriyroq. Bu holat bitta kollokatning ikki tildagi distributiv tarmog‘i teng emasligini, prosodik moslik har bir baza doirasida qayta tekshirilishini ko‘rsatadi.

Publitsistik materialda ijobiy prosodiya ko‘pincha ijtimoiy baholash bilan birga keladi. O‘zA materialida “munosib hissa qo‘shib kelayotgani” va “ulkan hissa qo‘shgani” shakllari ishlatilgan [20]. *Hissa qo‘shmoq*ning o‘zi, odatda, neytral-ijobiy voqeani bildiradi. *Munosib* va *ulkan* kollokatlari natijaning qadri hamda ko‘lamini oshiradi. Inglizchada *make a worthy contribution, make a significant contribution* va *make a major contribution* variantlari mavjud, lekin ular bir-birining mutlaq o‘rnini bosmaydi. *Worthy* axloqiy-ijtimoiy munosiblikni, *significant* natijaning ahamiyatini, *major* esa miqyosini oldingi o‘ringa chiqaradi. Shuning uchun munosib hissa kontekstsiz doim *significant contribution* deb berilsa, bahoning manbai sezilmay o‘zgarishi mumkin.

“Dunyo” axborot agentligi xabaridagi samimiy tabrik va tilaklar birligi ijobiy marosimni ifodalaydigan shaklga aylangan [21]. Ingliz tilidagi *warm, sincere* va *heartfelt congratulations* variantlarining barchasi ijobiy, ammo ularning pragmatik markazi boshqa-boshqa. *Warm* ijtimoiy iliqlikni, *sincere* rostgo‘ylikni, *heartfelt*

hissiyotning ichki manbasini kuchaytiradi. O‘zbekcha samimiy uchala belgining bir qismini birlashtira oladi. Rasmiy davlat tabrigida *sincere congratulations*, yaqin shaxsiy munosabatda *heartfelt congratulations*, protokol nutqida *warm congratulations* tabiiyroq bo‘lishi mumkin. Demak, umumiy ijobiy prosodiya saqlangani bilan registrga mos kollokat tanlash baribir zarur.

Rasmiy diskursda prosodiya ochiq hissiyotdan ko‘ra institutsional kuch bilan bog‘lanadi. *Adopt a resolution* birikmasidagi *adopt* fe’li kundalik ma’nodagi “asrab olmoq” bilan aloqador emas. U qarorning vakolatli organ tomonidan rasmiy kuchga kiritilishini bildiradi. *Imposed restrictions* esa cheklovning tashqi vakolat orqali joriy qilinishini oldingi o‘ringa chiqaradi. O‘zbekcha *qaror qabul qilmoq* va *cheklovlar joriy etmoq* muqobillari fe’llarni lug‘aviy jihatdan emas, jarayon nuqtayi nazaridan tenglashtiradi. Bunday birliklarni faqat ijobiy yoki salbiy yorliq bilan tavsiflash yetarli emas. “Neytral-rasmiy”, “cheklovchi-rasmiy”, “salbiy- institutsional” kabi funksional izohlar tarjimon uchun ko‘proq ma’lumot beradi.

Natijalar yana bir farqni ochdi. Baholovchi so‘z qatnashgan har bir birikma semantik prosodiya namunasi bo‘lavermaydi. *Flimsy excuse* tarkibidagi *flimsy* ochiq salbiy bahoga ega va bahona asosining zaifligini bevosita bildiradi. *Cause* fe’lining salbiy prosodiyasi esa ko‘plab noxush oqibat nomlari bilan takroriy birikishdan kelib chiqadi. Birinchi holatda birlikning muayyan semantik guruhga mansub so‘zlar bilan muntazam birikishi, ikkinchisida esa ana shu leksik qurshov ta’sirida yuzaga keladigan ijobiy, salbiy yoki neytral baho markazda turadi. Tarjima tahlilida bu ikki manba ajratilmasa, birikmaning pragmatik xususiyati ortiqcha soddalashtiriladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar semantik prosodiyani alohida leksemaga biriktirilgan doimiy belgi sifatida emas, kengaygan ma’no birligining diskursdagi xususiyati sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu jihat Sinklerning kengaygan birlik va idiomatik tanlov haqidagi qarashlariga [2], Partingtonning semantik prosodiyani baholovchi-pragmatik vazifa bilan bog‘lashiga [5;15] hamda Hanstonning tushuncha chegaralariga ehtiyotkor munosabatiga [6] mos keladi. Biroq o‘zbek-ingliz materiali ushbu yondashuvga tillararo qayta taqsimlanish o‘lchovini qo‘shadi. Baho faqat saqlanadi yoki yo‘qoladi, deb emas, boshqa komponent, obraz yoki grammatik markazga ko‘chadi, deb tavsiflanishi kerak.

Grabovski va Trklja semantik prosodiyani leksik birlik bilan nutq vaziyati va kommunikativ sharoitning o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rishni taklif qiladi [16]. Tanlamadagi registrga bog‘liq birliklar ushbu fikrni tasdiqlaydi. *Commit, adopt, conduct* va *impose* fe’llarining bahosi lug‘atdagi alohida

ma’nodan ko‘ra ular qatnashgan institutsional hodisa orqali aniqlanadi. Masalan, *conduct an investigation* jinoyatni ma’qullamaydi ham, qoralashni bevosita ifodalamaydi ham. U rasmiy tekshiruv jarayonini neytral nomlaydi. Salbiy fon *investigation* ning obyektidan kelishi mumkin. Shunday ekan, kontekstning salbiyligi tugun birlikning salbiy prosodiyasiga avtomatik tenglashtirilmasligi lozim.

Xiao va MakEnerining qiyosiy xulosalari [7] o‘zbek-ingliz materialida uch yo‘sinda davom ettiriladi. Birinchidan, yaqin denotativ muqobillar distributiv doirasi teng emas ya’ni *deep* va *chuqur* ayrim bazalarda mos, ayrimlarida esa boshqa kollokat talab qiladi. Ikkinchidan, prosodiya morfologik va sintaktik vositalarga turlicha taqsimlanadi. Ingliz tilidagi sifat o‘zbekchada fe’l, otning leksik tanlovi yoki yoyiq konstruktsiya bilan berilishi mumkin. Uchinchidan, registr semantik prosodiyaning mustaqil sozlovchisi bo‘lib chiqadi. Rasmiy matndagi neytral birlik publitsistik sarlavhada keskinroq baholovchi ta’sir olishi mumkin.

Maqoladagi 8-7-5-4 taqsimoti tilning umumiy statistik qonuniyati emas, tahliliy modelning mazkur tanlamada qanday ishlaganini ko‘rsatadi. Bu cheklov alohida ta’kidlanishining sababi shuki, semantik prosodiya tadqiqotlarida oldindan tuzilgan ijobiy-salbiy ro‘yxatlar tadqiqotchining hukmini ma’lumot o‘rniga qo‘yib yuborishi mumkin. Rasnes prosodiyani toifalashda tadqiqotchilararo muvofiqlikni o‘lchash zarurligini metodik jihatdan ko‘rsatadi [14]. Ushbu maqolada kodlash bir tadqiqotchi tomonidan bajarilgani sabab bahsli holatlar aralash yoki registrga bog‘liq deb saqlandi. Keyingi bosqichda kamida ikki mustaqil ekspert bilan qayta kodlash va Kohen kappa ko‘rsatkichini hisoblash maqsadga muvofiq.

Natijalar tarjima amaliyoti uchun to‘rt bosqichli prosodik nazoratni taklif etishga imkon beradi. Avval birikmaning denotativ yadrosi aniqlanadi. Keyin bahoning manbai tugun birlik, kollokat yoki keng kontekst ajratiladi. Uchinchi bosqichda maqsad til muqobilining yo‘nalishi, intensivligi va registri tekshiriladi. Oxirida alohida so‘zlar emas, butun gapning o‘quvchiga ko‘rsatadigan pragmatik ta’siri qiyoslanadi. Masalan, *compelling evidence* ni majbur qiluvchi dalil tarzida so‘zma-so‘z ko‘chirish denotatni xiralashtiradi. *Kuchli dalil* ba’zi publitsistik kontekstlarda ishlashi mumkin. *Ishonarli dalil* esa epistemik natijani aniqroq beradi. Tanlov janr va dalilning vazifasiga qarab asoslanadi.

Ikki tilli lug‘at uchun ham semantik prosodiya “ijobiy/salbiy” degan bitta belgi bilan tugamasligi kerak. Lug‘at maqolasida baho yo‘nalishi bilan birga uning manbai, kuchi va registri ko‘rsatilsa, foydalanuvchi muqobillar orasidagi nozik farqni anglaydi. Masalan, *concern* maqolasida *grave concern, growing concern, raise concerns* va *address concerns* bir qatorda berilsa, dastlabki uchtasidagi salbiy fon bilan oxirgi

birikmadagi muammoni bartaraf etishga yo‘naltirilgan funksional ma’no farqlanishi lozim. O‘zbekcha *jiddiy tashvish, ortib borayotgan tashvish, tashvish bildirmoq* va *muammoni hal etishga kirishmoq* muqobillari bir xil prosodik tuzilishga ega emas.

Tadqiqotning asosiy cheklovi tanlamaning kichik va maqsadli ekanidir. Unda barcha janrlar, davrlar va hududiy variantlar teng qamrab olinmagan. Ikkinchi cheklov toifalashning bir tadqiqotchi hukmiga tayanishidir. Uchinchi cheklov esa kollokatsiyalarning to‘liq chastota, dispersiya, MI, t-score va logDice ko‘rsatkichlari ushbu maqolada hisoblanmaganidir. Bu ko‘rsatkichlar keyingi kengaytirilgan korpus tadqiqotida zarur bo‘ladi, ammo ularning mavjud emasligi sifat tahlilida o‘ylab topilgan raqam bilan to‘ldirilmasligi kerak. Hozirgi natijalar prosodik munosabatlar tipologiyasini taklif qiladi. U keng va muvozanatlangan korpusda alohida tekshirilishi lozim.

4-jadval. Tarjimada semantik prosodiyani tekshirish algoritmi

Bosqich	Tekshiruv amali	Xatoga olib keladigan holat	Kutiladigan natija
1	*Denotativ yadroni aniqlash*	Ko‘p ma’noli bazani kontekstsiz tarjima qilish	Aktual ma’no belgilanadi
2	*Baho manbaini ajratish*	Ochiq leksik bahoni qurshoviy prosodiya bilan tenglashtirish	Tugun, kollokat va kontekst farqlanadi
3	*Yo‘nalish va intensivlikni qiyoslash*	Ijobiy/salbiylik yoki kuch darajasining sezilmay siljishi	Pragmatik ta’sir muvofiqlashadi
4	*Registrni tekshirish*	Grammatik to‘g‘ri, ammo janrga yot kollokat	Uzual sohaviy muqobil tanlanadi
5	*Butun gapni qayta o‘qish*	Komponentlar to‘g‘ri, lekin umumiy ohang nomosib	Kontekstual ekvivalentlik tasdiqlanadi

Manba: muallif tahlili.

XULOSA

O‘zbek va ingliz tilida kollokatsiyalarning qiyosi semantik prosodiya tarjima ekvivalentligining chekka uslubiy belgisi emasligini ko‘rsatdi. Birikmaning denotativ ma’nosi to‘g‘ri ko‘chirilgan taqdirda ham, uning odatiy baholovchi qurshovi, intensivligi yoki registri o‘zgarsa, pragmatik siljish yuz beradi. Shu sabab kollokatsion muqobil alohida so‘zlar tengligi bilan emas, baza, kollokat, grammatik ramka va diskurs vazifasining birgalikdagi muvofiqligi bilan belgilanadi. Maqsadli tanlamada

to‘rt munosabat aniqlandi ya’ni prosodik moslik, bahoning leksik qayta taqsimlanishi, intensivlik siljishi va registrga bog‘liq moslik. Birinchi turda baho yo‘nalishi hamda kuchi yaqin saqlanadi. Ikkinchisida baholovchi yuk boshqa komponent yoki konseptual obrazga ko‘chadi. Uchinchisida yo‘nalish saqlanib, daraja o‘zgaradi. To‘rtinchisida esa muqobil institutsional va janrga xos me’yor asosida tanlanadi. Bu tasnif tarjimada “saqlandi-yo‘qoldi” qarama-qarshiligidan ko‘ra aniqroq tahlil imkonini beradi.

Leksik baho bilan semantik prosodiyani farqlash zarur. *Flimsy excuse* kabi birlikda salbiylik kollokatning o‘zida ochiq ifodalangan. *Cause damage* singari konstruksiyada esa tugun birlikning baholovchi xususiyati uning takroriy oqibat qurshovi bilan mustahkamlanadi. *Tackle a problem* kabi birliklarda salbiy obyekt ijobiy yechim harakatiga xizmat qiladi. Demak, kontekst salbiy bo‘lgani uchun fe’lni ham salbiy prosodiyali deb belgilash ilmiy jihatdan yetarli emas.

Amaliy jihatdan kollokatsiyani tarjima qilishda denotativ yadro, baho manbai, prosodik yo‘nalish, intensivlik, registr va butun gapning pragmatik ta’siri izchil tekshirilishi lozim. Ikki tilli lug‘atda esa prosodiya faqat bitta yorliq sifatida emas, muqobil tanlashni izohlaydigan axborot zonasi sifatida berilishi kerak. Keyingi tadqiqotda tanlamani kengaytirish, janrlar bo‘yicha muvozanatlash, mustaqil ekspertlar bilan qayta kodlash va chastota-dispersiya ko‘rsatkichlarini qo‘shish mazkur tipologiyaning empirik barqarorligini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Firth J.R. A Synopsis of Linguistic Theory, 1930-1955 // Studies in Linguistic Analysis. Oxford: Blackwell, 1957. P. 1-32.

2. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991. 179 p.

3. Louw B. Irony in the Text or Insincerity in the Writer? The Diagnostic Potential of Semantic Prosodies // Baker M., Francis G., Tognini-Bonelli E. (eds.). Text and Technology: In Honour of John Sinclair. Amsterdam-Philadelphia: John Benjamins, 1993. P. 157-176.

4. Stubbs M. Collocations and Semantic Profiles: On the Cause of the Trouble with Quantitative Studies // Functions of Language. 1995. Vol. 2, No. 1. P. 23-55. DOI: 10.1075/fol.2.1.03stu.

5. Partington A. “Utterly Content in Each Other’s Company”: Semantic Prosody and Semantic Preference // International Journal of Corpus Linguistics. 2004. Vol. 9, No. 1. P. 131-156. DOI: 10.1075/ijcl.9.1.07par.

6. Hunston S. Semantic Prosody Revisited // International Journal of Corpus Linguistics. 2007. Vol. 12, No. 2. P. 249-268. DOI: 10.1075/ijcl.12.2.09hun.

7. Xiao R., McEnery T. Collocation, Semantic Prosody, and Near Synonymy: A Cross-Linguistic Perspective // Applied Linguistics. 2006. Vol. 27, No. 1. P. 103-129. DOI: 10.1093/applin/ami045.

8. Bednarek M. Semantic Preference and Semantic Prosody Re-examined // Corpus Linguistics and Linguistic Theory. 2008. Vol. 4, No. 2. P. 119-139. DOI: 10.1515/CLLT.2008.006.

9. Dilts P., Newman J. A Note on Quantifying ‘Good’ and ‘Bad’ Prosodies // Corpus Linguistics and Linguistic Theory. 2006. Vol. 2, No. 2. P. 233-242. DOI: 10.1515/CLLT.2006.011.

10. Stewart D. Semantic Prosody: A Critical Evaluation. New York: Routledge, 2010. 192 p.

11. McEnery T., Hardie A. Corpus Linguistics: Method, Theory and Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. 294 p.

12. Brezina V., McEnery T., Wattam S. Collocations in Context: A New Perspective on Collocation Networks // International Journal of Corpus Linguistics. 2015. Vol. 20, No. 2. P. 139-173. DOI: 10.1075/ijcl.20.2.01bre.

13. Kilgarriff A., Baisa V., Bušta J. et al. The Sketch Engine: Ten Years On // Lexicography. 2014. Vol. 1. P. 7-36. DOI: 10.1007/s40607-014-0009-9.

14. Russnes M. Semantic Prosody, Categorisation and Inter-rater Reliability // Research Methods in Applied Linguistics. 2025. Vol. 4, No. 3. Article 100264. DOI: 10.1016/j.rmal.2025.100264.

15. Partington A. Evaluative Prosody // Aijmer K., Rühlemann C. (eds.). Corpus Pragmatics: A Handbook. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. P. 279-303. DOI: 10.1017/CBO9781139057493.015.

16. Grabowski Ł., Trklja A. Unravelling the Complexity of Semantic Prosody: A Theoretical Inquiry // Journal of Pragmatics. 2024. Vol. 226. P. 89-102. DOI: 10.1016/j.pragma.2024.04.006.

17. Ibragimov J.Yo. O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari: filol. fan. doktori (DSc) dissertatsiyasi. Qarshi, 2023. 237 b.

18. Madaminov A. Xususiy birikuvchi so‘z birikmalari va ularning nutqiy voqelanishi // Til va adabiyot ta’limi. 2025. № 12. B. 6-8.

19. Mamaraximov S.M. Otlarning xususiy birikuvchilari va birikuvchanlik lug‘atini tuzishning lingvistik asoslari: filol. fan. bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. Navoiy, 2026.

20. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi. “Vatan” jurnali – Yangi O‘zbekistonni jahonga tanitayotgan nashr. 2025. URL: https://uza.uz/uz/posts/vatan-jurnali-yangi-ozbekistonni-jahonga-tanitayotgan-nashr_733400.

21. “Dunyo” axborot agentligi. O‘zbekiston xalqi va Prezidenti nomiga butun dunyodan samimiy tabrik va tilaklar kelib tushmoqda. Facebook posti. 2026. URL: https://www.facebook.com/DunyoIA/posts/1575174863721418/.

22. Brontë Ch. Jane Eyre. Project Gutenberg, eBook No. 1260, Chapter XXVI. URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/1260.

23. Shelley M. Frankenstein; or, The Modern Prometheus. Project Gutenberg, eBook No. 84, Chapters X, XIX. URL: https://www.gutenberg.org/ebooks/84.

24. Oxford Collocations Dictionary for Students of English. 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2009. 963 p.